
Sux tumani ham “yashil hudud” toifasiga kiritildi



Sux tumani ham “yashil hudud” toifasiga kiritildi

Joriy yilning 7 may kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan mamlakatimizda koronavirus bilan bog'liq vaziyat yaxshilanib, ijobiy tomonga o'zgarib borishi bilan, hududlarni toifaga ajratishni tuman va shaharlar darajasida belgilash ta'kidlandi.

Farg'ona shahri va Sux tumani yashil hudud toifasiga kiritildi. Lekin, agarda bu hududlarda kasallikni yuqtirish holati aniqlansa, usha hudud yana qizil hududga aylanadi. Shuning uchun, har birimiz hamisha va doimo hushyor va ogoh bo'lishimiz lozim. “Yashil hudud” ga kirgani bilan kasallikni yuqtirish ehtimoli kamaymaydi.

Koronavirus pandemiyasi davrida ishsizlikni kamytirish, tumanimiz aholisini doimiy ish joyi bilan ta'minlash holati

Tumanimizda 1010 ta kam ta'minlangan xonadon bo'lib, ular 106 ta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga birlashtirilgan.

Tadbirkorlarimiz ham yoshlarni vaqtinchalik ishga qabul qilishmoqda. Bugungi kunda tumanimizda 6 ta korxonalar va saxovatpesha tadbirkorlarimiz tomonidan hududlardagi yoshlarimizning 109 nafari ishga qabul qilingan. Bunday tadbirkorlarga hukumat tomonidan ko'p imtiyozlar belgilangan.

Bugungi kunga qadar 10 gektar qishloq xo'jaligida foydalanmayotgan yerlarni 50 nafar yoshlarga ajratib berilgan. Bu ham albatta, 50 nafar yoshlarimizning bandligi ta'minlandi deganidir.

Subsidiya asosida berilgan issiqxonalar: tuman bo'yicha 32 ta. Umumiy qiymati - 71 million 360 000 so'm. E'tiborli jihati: bunday issiqxonalar qo'lida kadastr hujjati bo'lgan, lekin bugungi kunda ishsiz maqomida bo'lgan fuqarolarga beriladi.

Tomorqadan foydalanish: tumanda jami bo'lib, 13 808 ta xonadon bo'lib, bundan 12 904 tasi tomorqasi bor xonadonlar sanaladi. Tomorqaning tuman bo'yicha umumiy maydoni 668 gektar bo'lib, bugungi kungacha barcha 668 gektar maydonga 100 foiz ekin ekib bo'lingan.



Qurilish sohasi

Tumanda 2020 yil investitsion dastur asosida 3 ob'ekt qurilish- ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bular

1. Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini hududiga yangi maktab qurish;
2. Tuman markaziy shifoxona ma'muriy binosini rekonstruktsiya qilish;
3. Tuman davlat sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi binosini ta'mirlash.

Hozirgi kunda tuman davlat sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi binosini 405 mln. so'mga tanlov asosida "Guzari Gavhari Dilafruz" xususiy korxonasi olib qurilish ta'mirlash ishlarini 70% ga amalga oshirildi qurilishda hozirgi kunda 15 kish ishchi-xodimlar karantin qoidalariga amal qilib ish olib borilmoqda.

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini hududiga yangi maktab qurish 4 milliard 500 million so'mga "Mirzoqurbon" ishlab chiqarish savdo firmasi tomonidan tanlov asosida olib hozirgi kunda yer qazish ishlari tugatilib, beton quyish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda 55 kishi ishchi-xodimlar ish olib bormoqda.

Tuman markaziy shifoxonasi ma'muriy binosini rekonstruktsiya qilish ishlarini 3 milliard 700 mln so'mga "Farg'ona Defent" xususiy korxonasi va "Al-Behrux" xususiy korxonasi tomonidan tanlov asosida olib, hozirgi kunda yer qazish ishlari tugatilib, beton quyish ishlari olib borilmoqda va bu inshootda bugungi kunda 22 nafar ishchi-xodimlar tomonidan ish olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini hududiga yangi zamonaviy buyum bozori qurilishi rejalashtirilgan bulib, qurilish ishlarini tadbirkor quruvchi tashkilotlar "Mirzoqurbon" xususiy ishlab chiqarish savdo firmasi, "Mulki Mirjalol" xususiy korxonasi va "Sux Agro Omad" xususiy korxonalariga birlashtirib berilgan. Hozirgi kunda 55% qurilish ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda qurilishda 47 dan ziyod ishchi-xodimlar tomonidan karantin qoidalariga amal qilingan holda ish olib borilmoqda.

Sux tuman hududida 10 dan ziyod xususiy tadbirkorlar tomonidan 2 milliard 500 million so'm o'z mablag'lari hisobidan qurilish ishlari amalga oshirilmoqda

Shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasida tumanimizda yoshlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyati qurilishlariga jalb etish bo'yicha ro'yixat shakllantirilyapti.



Chegaradagi holatlar

Barchamizga ma'lum, Sux tumanimiz anklav tumani hisoblanib, to'rt tomondan Qirg'iziston respublikasi bilan chegaradosh. Shuning uchun, Lenburg, Malbud, Qayroq, Toyon massivida bo'lgan holatlar bizni ogohlikka chorlaydi. Chegara muqaddas, uni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Har bir

qarich yer hisobli, har xil mish-mishlarga ishonmaslik kerak emas. Chegaralarimizni saqlash va asrash borasida har kuni tuman hokimi boshchiligida barcha huquq-tartibot organlari vakillari ish olib borishmoqdaz.



Bu yili Qayroq, Vargan, Toyon massivlari yerlarini o'zlashtirish bo'yicha hukumat doirasida ishlar amalga oshiriladi. Albatta, davlatimiz tomonidan muayyan miqdordagi mablag'lar ajratilib, bu massivlarni sug'orish ishlari olib boriladi.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-12 17:12:02